



ABDURAHMONBEGI ASHULASINING NODIR YOZUVI

Yakubov Zohidjon Baxtiyor o'g'li

O'zR FA San'atshunoslik instituti, ilmiy xodim

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek milliy musiqasining durdona asarlaridan bo'lgan Abdurahmonbegi ashulasi, jumladan uning O'zR FA San'atshunoslik institutida saqlanayotgan nodir yozuvi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Ashula, lad, interval, sekunda, tersiya, tayanch, yarim tayanch, kuy tuzilmasi.

Annotation. This article focuses on Abdurahmonbegi – one of the finest examples of Uzbek national vocal heritage – and, in particular, discusses its rare archival recording preserved at the Institute of art studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Keywords. Ashula, mode, interval, second, third, primary tone, secondary tone, melodic structure.

Bastakorlik ijodiyoti og'zaki an'anadagi kasbiy musiqamizning eng muhim bo'g'inlaridan biri sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Zero, yurtimizda asrlar davomida shakllanib, sayqal topib kelayotgan maqomlarimiz, professional tarzda ijro etiladigan turli ashula yo'llarimiz, mumtoz qo'shiqlarimiz va kuylarimiz aynan bastakorlar ijodining mevasi, ularning badiiy-intellektual fikrining mahsuli sifatida vujudga kelgan. Ashula yo'llarining ayrim namunalari avloddan-avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgani uchun ularning muallifi noma'lum bo'lib qoladi, ayrimlarida esa bastakor ismi aniq qayd etiladi. Shu bois ko'p hollarda ashula nomi bastakorning ismi bilan birga tilga olinadi va bu holat o'z navbatida bastakor shaxsi, uning ijodiy maktabi yoki hududiy uslubi haqida muhim ma'lumot beradi. Xuddi ana shunday tarixiy-nodir ashula yo'llaridan biri "Abdurahmonbegi" bo'lib, quyida aynan shu ashulaning nodir namunasi xususida qisqacha mulohaza yuritamiz.

Abdurahmonbegi ashulasining muallifi qator manbalarda Abdurahmonbek ismli bastakor bo'lgani qayd qilinadi, jumladan, A.Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasidan ma'lum bo'lishicha, "Abdurahmonbegi" kuyi 1895-nchi yillarda vafot etkan shahrisabzlik Abdurahmonbek tomonidan bog'langan emish"³⁰. N.Mironov "Abdurahmonbegini"ning muallifi hijriy 1225-yillarda (taxminan XIX asrning birinchi choragi) Qo'qon xoni Madalixon (Muhammad Alixon) hukmronlik qilgan yillari (1822-1842) yashaganini ta'kidlagan ³¹. Iste'dodli bastakor "Abdurahmonbegi"ni yaratishda Farg'ona vodiysida shu nomda ma'lum aytim

³⁰ Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi / Nashrga tay. K.Hasan. – Toshkent: "Fan", 1993. – B. 26.

³¹ Миронов Н. Обзор музыкальных культур узбеков и других народов Востока. – Самарканд: изд. Инмузхоруза, 1931. – С. 43.

namunasidan ijodiy foydalangan bo'lsa kerak. Chunki akademik Y.Rajabiy bu ashulani Farg'onaning eski xalq ashulalaridan ekanligini bayon qilgan³².

“Abdurahmonbegi”ning nodir yozuvlaridan biri atoqli san'atkor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Shorahim Shoumarov tomonidan ijro qilingan hamda hozirgi kunga qadar O'zR FA San'atshunoslik institutida saqlanmoqda. Ushbu yozuv “Abdurahmonbegi” hamda “Ufari Abdurahmonbegi” ashulalaridan iborat. Abdurahmonbegi turkumining ketma-ketligi borasida chalkashliklar kuzatiladi. Xalq orasida eng mashhur bo'lgan, “Umr, davlatlaring bo'lsin ziyoda” jumalari bilan boshlanuvchi variant ijrochilar tomonidan Abdurahmonbegi-I deb talqin qilinadi. O'zbek xalq muzikasi to'plamining to'rtinchi jildida Abdurahmonbegi-III nomi bilan berilgan ashula keyinchalik Y.Rajabiyning o'zi tomonidan aslida bu ashula Abdurahmonbegi-I ekanligi ta'kidlanadi³³. Ko'rinib turibdiki, ushbu kichik turkumning ketma-ketligi borasida yakuniy to'xtamga kelish mushkul.

Biz ko'rib chiqayotgan, Sh.Shoumarov ijrosidan yozib olingan namuna Muqimiyning murabba' shaklidagi “Aylading” qofiyali she'ri bilan aytiladi. Uning nota yozuvi “O'zbek xalq muzikasi” to'plamining birinchi jildida³⁴ keltirilgan. Nota namunasi bo'yicha ashula G-miksolidiy ladiga to'g'ri keladi. Sh.Shoumarov ijrosining yozuvi esa, katta sekunda pastdan, ya'ni F-miksolidiy ladi bilan aytilgan. Ashula odatiy kuy tuzilmalaridan, ya'ni daromad, miyonxat, dunasr, avj hamda furovarddan tashkil topgan. Asardagi kuy tuzilmalari asosiy tayanch (f) hamda yarim tayanch (c)dan boshlanmay, balki bu pog'onalariga o'tish tersiya intervali bo'yicha pog'onama-pog'ona yurish bilan amalga oshiriladi. Ashulaning diapazoni ham umchalik katta emas, bir yarim oktavadan sal oshib, ikki oktavaga yetib bormaydi. Kuy tuzilmalari ham uncha murakkab bo'lmay, ko'p hollarda qaytariq bilan shu darajada mohirona ijro etiladiki, tinglaganda yangi kuy tuzilma yanglig' tuyuladi.

Mazkur ijroda Abdurahmonbegi ketidan uning ufari ijro etiladi. Ufari Abdurahmonbegi ham nota yozuviga³⁵ nisbatan katta sekunda pastdan ijro etilgan, ya'ni uning ham ladi F-miksolidiy. Ashulaning she'ri muxammas shaklida bo'lib, nota yozuviga ko'ra Muqimiyning “Boshima ishqing tushub” jumalari bilan boshlanuvchi she'riga aytilsa, Sh.Shoumarov uni Nodira she'ri bilan ijro etgan. Ashulaning tuzilishi muxammas she'r tuzilmasiga mos besh xil kuy tuzilmasidan iborat bo'lib, har bir band uchun bir xil kuy tuzilmalari ishlatiladi. Asosiy tayanch – f. Kuy tuzilmalari bo'yicha tayanch hamda yarim tayanch bosqichlar quyidagicha ko'rinishda tartiblanadi – f-b-f²-b(f). Ushbu kichik hajmli ashulaning diapazoni ham shunga yarasha, ya'ni bir

³² O'zbek xalq muzikasi. T. I / To'plov. va notaga oluv. Y.Rajabiy; Tahr. Il.Akbarov. – Toshkent: O'zdamnashr, 1955. – B. 499.

³³ Rajabiy Y. Muzika merosimizga bir nazar / Tahr. F.Karomatov. – Toshkent: G'afur G'ulom nom. adab. va san. nashr., 1978. – B. 76.

³⁴ O'zbek xalq muzikasi. T. I / To'plov. va notaga oluv. Y.Rajabiy; Tahr. Il.Akbarov. – Toshkent: O'zdamnashr, 1955. – B. 168-171.

³⁵ O'zbek xalq muzikasi. T. I / To'plov. va notaga oluv. Y.Rajabiy; Tahr. Il.Akbarov. – Toshkent: O'zdamnashr, 1955. – B. 172-173.



oktavadan iborat. Asarning kuy yo‘nalishi asosan pog‘onama-pog‘ona harakatlardan tashkil topgan bo‘lib, ohang sakramalari deyarli ishlatilmaydi. Shu jihatdan uning kuychanlik xususiyati juda yuqori bo‘lib, bu, ayniqsa, Sh.Shoumarov ijrosida maromiga yetgan.

Musiqa merosimizda Abdurahmonbegi va unga o‘xshagan jozibali ashula yo‘llari talaygina. Bunday durdona asarlarning yetuk ustozlar ijrosida yozib olingan namunalari hamma vaqt yosh ijrochilar, xonandalik bo‘yicha dars beruvchi ustozlar hamda milliy musiqa shinaavandalari uchun bebaho meros hisoblanadi. Shu sababli bunday ijro namunalarini saqlab qolish, raqamlashtirish hamda ular ustida yirik tadqiqotlar olib borish soha mutaxassislari uchun bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi / Nashrga tay. K.Hasan. – Toshkent: “Fan”, 1993. – B. 26.
2. Rajabiy Y. Muzika merosimizga bir nazar / Tahr. F.Karomatov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nom. adab. va san. nashr., 1978. – B. 76.
3. O‘zbek xalq muzikasi. T. I / To‘plov. va notaga oluv. Y.Rajabiy; Tahr. Il.Akbarov. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1955. – B. 499.
4. Миронов Н. Обзор музыкальных культур узбеков и других народов Востока. – Самарканд: изд. Инмузхоруза, 1931. – С. 43.